



JSTGA A'ZO BO'LISHNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIGA TA'SIRI

Qodirov Sardor Zafar o'g'li

e-mail: sardorkodiriy@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishning Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilingan. Unda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonning JST bilan hamkorlikdagi jarayonlari, ularning a'zolikdan keyingi iqtisodiy o'zgarishlari, integratsiya darajasi hamda milliy iqtisodiyotdagi ijobiy va salbiy oqibatlar keng yoritilgan.

Tadqiqot davomida JST a'zolidan savdo hajmi, xorijiy investitsiyalar oqimi, raqobat muhiti, eksport-import balansi va ishsizlik darajasiga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada JST talablari va a'zolik jarayonida Markaziy Osiyo mamlakatlarining duch kelayotgan muammolari hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa qismida JSTga a'zolikning mintaqa davlatlari uchun strategik ahamiyati, iqtisodiy liberallashtirish jarayonini jadallashtirishdagi o'rni hamda global iqtisodiyotga integratsiya imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Jahon Savdo Tashkiloti, Markaziy Osiyo, iqtisodiy integratsiya, xalqaro savdo, investitsiyalar, raqobat muhiti, eksport, import, iqtisodiy o'sish, global bozor.

ВЛИЯНИЕ ЧЛЕНСТВА ВО ВСЕМИРНОЙ ТОРГОВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ НА СТРАНЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация: В данной статье анализируется влияние членства во Всемирной торговой организации (ВТО) на экономики стран Центральной Азии. Рассматриваются процессы сотрудничества Казахстана, Кыргызстана,



Таджикистана, Туркменистана и Узбекистана с ВТО, а также экономические преобразования, уровень интеграции и положительные и отрицательные последствия после вступления в организацию. В исследовании на основе статистических данных оценивается влияние членства в ВТО на объём торговли, приток иностранных инвестиций, конкурентную среду, экспортно-импортный баланс и уровень безработицы. Также освещаются проблемы, с которыми сталкиваются страны региона в процессе присоединения, и предлагаются пути их решения. В заключении подчёркивается стратегическая важность членства в ВТО для стран Центральной Азии, его роль в ускорении экономической либерализации и возможности более глубокой интеграции в мировую экономику.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, Центральная Азия, экономическая интеграция, международная торговля, инвестиции, конкуренция, экспорт, импорт, экономический рост, мировой рынок.

The Impact of WTO Membership on the Central Asian Countries

Annotation: This article analyzes the impact of World Trade Organization (WTO) membership on the economies of Central Asian countries. It examines the processes of cooperation between Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan with the WTO, as well as their economic transformations, integration levels, and the positive and negative outcomes following accession.

The research evaluates the effects of WTO membership on trade volume, foreign investment inflows, the competitive environment, export-import balance, and unemployment rates based on statistical data. The article also highlights the challenges faced by Central Asian countries during the accession process and proposes possible solutions for overcoming them.



In conclusion, the strategic importance of WTO membership for the region, its role in accelerating economic liberalization, and the opportunities it provides for deeper integration into the global economy are substantiated.

Keywords: World Trade Organization, Central Asia, economic integration, international trade, investments, competition, export, import, economic growth, global market.

Kirish

Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston, JST a'zoliciga turlicha yondashgan va ularning a'zo bo'lish jarayoni har biri uchun o'ziga xos natijalar keltirgan. Quyida JST a'zoliciga kirishning Markaziy Osiyo mamlakatlariga ta'siri haqida batafsil tahlil keltiriladi.

Asosiy qism

Qozog'iston 2015-yilda Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'ldi. Bu, mamlakatning iqtisodiy integratsiyasining muhim bosqichi bo'ldi, chunki JST a'zosi sifatida Qozog'iston xalqaro savdoni erkinlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlarga ega bo'ldi. Biroq, bu jarayon bir qator ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqargan bo'lsa-da, ba'zi salbiy oqibatlar ham yuzaga keldi. Quyida Qozog'istonning JSTga a'zo bo'lishidan so'ng ijobiy va salbiy o'zgarishlarga batafsil to'xtalamiz.

Ijobiy O'zgarishlar:

Savdo Imkoniyatlarining Kengayishi, JSTga a'zo bo'lish, Qozog'istonning savdo aloqalarini global bozorga ochdi. Mamlakat bozorlariga bo'lgan kirish imkoniyatlari kengaydi, ayniqsa rivojlangan mamlakatlar va mintaqaviy bozorlar bilan.



Xalqaro savdoni erkinlashtirish: JST a'zo bo'lish orqali Qozog'istonning eksporti ko'paydi. Asosan, neft va gaz, metallurgiya mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va avtomobillar kabi tovarlar eksporti oshdi.

Tariflar va to'siqlarni kamaytirish: JSTga a'zo bo'lish, Qozog'istonning tariflar va notarif to'siqlarni kamaytirishi, shu bilan birga, tovarlar va xizmatlar uchun raqobatbardosh bozorlarni yaratdi. 2015-yildan so'ng, Qozog'istonning eksporti 10-15foiz o'sdi, ayniqsa, Qozog'istonning energetika sektori misli ko'rilmagan darajada rivojlanishga erishdi.

Investitsiyalarni Jalb Qilish JSTga a'zo bo'lish Qozog'istonga xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishni osonlashtirdi. Xususan, xalqaro kompaniyalar va investorlar uchun Qozog'istonning iqtisodiy siyosati va bozoriga kirish imkoniyatlari yanada oshdi.

Investitsiya muhiti yaxshilanishi: JSTga a'zo bo'lish, Qozog'istonning investitsiya siyosatini global standartlarga moslashtirdi. 2015-yildan keyin, Qozog'iston iqtisodiyoti 25-30foiz o'sdi va investitsiya oqimi sezilarli darajada ortdi.

Infrastruktura va texnologiyalarni rivojlantirish: Qozog'iston o'zining infratuzilmasini rivojlantirishga sarmoya kiritish va texnologiyalarni joriy etishda global investorlar uchun jozibador bo'ldi.

Iqtisodiy Islohotlar JSTga a'zo bo'lish, Qozog'istonni iqtisodiy islohotlar o'tkazishga undadi. Bu jarayon bojxona, soliq, va mehnat qonunchiligi kabi sohalarda modernizatsiyani keltirib chiqardi.

Bojxona va soliq islohotlari: JSTga a'zo bo'lish orqali Qozog'istonning bojxona tizimi soddalashtirildi, tovarlar va xizmatlar bozoriga kirish osonlashdi. Yangi soliq siyosatlari va iqtisodiy boshqaruv tizimlari joriy etildi.

Soliq tizimini yaxshilash: Mamlakatda soliq tizimining oddiylashtirilishi va raqamli texnologiyalar orqali soliq yig'ish jarayonining soddalashtirilishi.



Sanoatni Rivojlantirish JSTga a'zo bo'lish, Qozog'istonni sanoatni rivojlantirishga rag'batlantirdi. Mamlakatda yangi texnologiyalarni import qilish va yuqori texnologik ishlab chiqarish sohalariga sarmoya kiritish imkoniyatlari ortdi.

Texnologik innovatsiyalar: JST a'zo bo'lish orqali mamlakat texnologik jihatdan rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro almashish va yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu, ayniqsa, avtomobilsozlik, maishiy texnika va boshqa sanoat tarmoqlarida rivojlanishga olib keldi.

Salbiy O'zgarishlar:

Ichki Raqobatning Kuchayishi JSTga a'zo bo'lish, Qozog'iston ichki bozorida raqobatni kuchaytirdi, bu esa ba'zi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qiyin ahvolga solishi mumkin.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni bosimga olish: Xalqaro bozorlarga kirish imkoniyati oshgan bo'lsa-da, mahalliy ishlab chiqaruvchilar chet el kompaniyalari bilan raqobatlashishda qiyinchiliklarga duch keldi. Ba'zi sohalarda (masalan, o'zbek paxtasining arzonligi va to'qimachilik mahsulotlari) mahalliy ishlab chiqaruvchilar zarar ko'rdi.

Kichik va o'rta biznesga ta'sir: Kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlari cheklangan, bu esa ularning global raqobatga qarshi turish qobiliyatini pasaytirdi.

Tariflar va Notarif to'siqlarning pasayishi. JSTga a'zo bo'lish orqali tariflar kamaydi va notarif to'siqlarni kamaytirish maqsadida ko'plab mahsulotlarga kirish osonlashdi, ammo bu ba'zi mahalliy tarmoqlarda "bosib olish" jarayonini keltirib chiqardi.

Dastlabki zarba sohalariga: O'zining zaif eksport yo'nalishlarida (masalan, oziq-ovqat sanoati, sanoat mashinalari ishlab chiqarish) tariflarning kamayishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ta'minot zanjirlaridagi raqobatni oshirdi, bu esa ularga qo'shimcha iqtisodiy bosim yaratdi.



Ishsizlik va Mehnat Bozori JSTga a'zo bo'lishning salbiy oqibatlaridan biri, ayrim tarmoqlarda ishchilarni kamaytirish va mehnat bozorida o'zgarishlarning yuzaga kelishidir.

Ishsizlikning oshishi: Mahalliy sanoatning bir qismini import mahsulotlari bilan almashtirish, ba'zi sektorlarda ish o'rinlarining kamayishiga olib keldi. Ayniqsa, kam malakali ishchilar uchun yangi ish o'rinlarining yaratilishi qiyin bo'ldi.

Tashqi Savdo Defitsiti, Qozog'istonning eksporti o'ssa-da, importning ortishi, tashqi savdo defitsitini keltirib chiqardi. Mamlakat uchun importga qo'shimcha xarajatlar yuklandi.

Importga qaramlik: JSTga a'zo bo'lish orqali tovarlar importi o'sdi, bu esa iqtisodiy va moliyaviy muammolarni keltirib chiqardi. Ba'zi sektorlar o'z mamlakatida ishlab chiqariladigan tovarlar uchun narxlar oshishiga olib keldi.

Qozog'istonning JSTga a'zo bo'lishi mamlakatning iqtisodiy integratsiyasini kuchaytirdi, xalqaro savdo aloqalarini kengaytirdi va investitsiyalarni jalb qilishda sezilarli yutuqlarga olib keldi. Shu bilan birga, bu jarayon mahalliy sanoat va ishchi kuchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tarixan, JSTga a'zo bo'lishning ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud bo'lsa-da, bu jarayon mamlakatni global iqtisodiyotga yanada yaqinlashtirgan va modernizatsiya qilishga yordam bergan.

Qirg'iziston 1998-yilda markaziy osiyo mamlakatlari ichida birinchi bo'lib Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'ldi. Bu mamlakat uchun katta iqtisodiy o'zgarishlarni keltirib chiqargan va global iqtisodiyotga integratsiyalashish uchun muhim qadam bo'ldi. JSTga a'zo bo'lish Qirg'izistonga xalqaro savdoni erkinlashtirish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini yaratdi. Biroq, bu jarayonning ijobiy o'zgarishlari bilan birga, ba'zi salbiy oqibatlar ham yuzaga keldi. Quyida, Qirg'izistonning JSTga a'zo bo'lishidan keyingi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni batafsil ko'rib chiqamiz.



Экспорт имкониятларининг oshishi: JSTga a'zo bo'lish orqali, Qirg'izistonning eksporti kengayib, unga yangi bozorlar ochildi. Ayniqsa, Qirg'izistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlari, kumush, oltin va boshqa minerallarining eksporti oshdi. 2010-yillarning oxirlarida, mamlakatning umumiy eksporti oshdi va xususan, Rossiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlarga eksport yanada kuchaygan.

Savdo to'siqlarining kamayishi: JSTga a'zo bo'lish orqali Qirg'iziston bozoriga kirish uchun tariflar va notarif to'siqlar kamaydi. Bu mamlakatda bo'lib o'tayotgan tijorat amaliyotlarini yanada erkinlashtirdi va yangi bozorlarni ochdi. Ayniqsa, import qilishni soddalashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga olib keldi.

Investitsiya muhiti yaxshilanishi: JSTga a'zo bo'lish, mamlakatning investitsiya siyosatini global standartlarga moslashtirishga imkon yaratdi. Qirg'iziston iqtisodiyoti jahon bozorlariga yanada ochiq bo'lib, xorijiy kapitalni jalb qilishda sezilarli o'sish kuzatildi.

Yangi tarmoqlarni rivojlantirish: Yangi tarmoqlar va biznes sektorlarida, xususan, ishlab chiqarish, avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi va infratuzilmani rivojlantirishda sarmoyalar kirib keldi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarini yaratdi.

Tijoratning erkinlashishi JSTga a'zo bo'lish orqali Qirg'iziston ichki bozorini yanada erkinlashtirdi. Bu esa, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish imkoniyatlarini yaratdi.

Mahsulotlar va xizmatlar erkinligi: Mamlakatda bozorlarda raqobat kuchayganidan so'ng, ishlab chiqaruvchilar yangi texnologiyalarni joriy etish va sifatni oshirishga majbur bo'ldilar. Bu esa, mahsulotlarning sifatini yaxshilanishiga olib keldi va xaridorlarga raqobatbardosh narxlarni taqdim etdi.

Jahon savdo tashkiloiga a'zolik Qirg'iziston iqtisodiyoti uchun katta ijobiy foydalar keltirishi bilan birgalikda ma'lum bir darajada salbiy o'zgarishlar ham olib keldi. Mahalliy ishlab chiquvchilar uchun raqobatning kuchayishiga bulardan biri



deb aytsak bo'ldi. JSTga a'zo bo'lish Qirg'iziston ichki bozorida raqobatni kuchaytirdi. Bu, ayrim mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qiyin ahvolga solishi mumkin.

Mahalliy sanoatni siqib chiqish: Xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlari oshgan bo'lsada, mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatlashishda qiyinchiliklarga duch keldi. Xususan, kichik va o'rta bizneslar, yuqori sifatli va arzon narxdagi import tovarlari bilan raqobatlashishda mushkulotlarga uchradi.

Ishlab chiqarish sohasidagi qiyinchiliklar: Ayrim sohalarda, masalan, qishloq xo'jaligi va sanoatda yuqori raqobat kuchayib, bu mahalliy ishlab chiqaruvchilarni narxlarni pasaytirish va sifatni oshirish uchun majbur qildi.

Umumiy qilib aytganda ushbu salbiy oqibatlar kuzatilishiga qaramay Jahon savdo tashkilotiga a'zolik foydalilik darajasi yuqoriligi va iqtisodiy sektorlarda yuksak o'sish kuzatilganligi, jahon bozorlariga integratsiya jarayoni tezlashganligi va asosiysi aholi turmush tarzining yaxshilanganligi Qirg'iziston respublikasi uchun bu salbiy oqibatlarni mutlaqo yuvib ketdi.

Tojikiston 2013-yilning 2-dekabrida Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'ldi. Bu bosqich mamlakat uchun iqtisodiy integratsiyaning yangi davrini boshladi va global iqtisodiyotga kirib borish uchun muhim qadam bo'ldi. JSTga a'zo bo'lish, Tojikistonning tashqi savdo siyosatiga jiddiy o'zgarishlar kiritdi, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. JSTga a'zo bo'lish orqali Tojikiston tashqi savdosini kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va sanoatni modernizatsiya qilish imkoniyatlarini qo'lga kiritdi. Biroq, bu jarayon mahalliy sanoatni global bozorga moslashtirishni, texnologik islohotlarni tezlashtirishni va raqobatbardoshlikni oshirishni talab etdi. Kelajakda Tojikiston bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun qo'shimcha iqtisodiy islohotlar, sanoatni diversifikatsiya qilish, texnologik modernizatsiya va raqobatbardoshlikni oshirishga katta e'tibor qaratishi zarur. Bu, o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini va global iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.



Turkmaniston uzoq vaqt davomida JSTga qo'shilish jarayoniga qiziqish bildirmagan va faqat 2020-yilda ushbu tashkilotda kuzatuvchi maqomini oldi. Bu Markaziy Osiyodagi eng yopiq iqtisodiy tizimlardan biri bo'lib, davlat tomonidan qattiq nazorat qilinadi. Turkmaniston tabiiy gaz eksportiga tayanib, asosan Xitoy, Rossiya va Eron bilan savdo qiladi.

Turkmaniston yopiq iqtisodiy model asosida ish yuritadi. Mamlakatning iqtisodi asosan tabiiy gaz eksportiga bog'liq bo'lib, davlat tomonidan qattiq nazorat qilinadi. Hukumat proteksionistik siyosat yuritib, ko'pgina import va investitsiyalarni cheklab kelgan. JST esa erkin bozor iqtisodiyotini talab qiladi, bu esa Turkmaniston siyosati bilan mos kelmaydi. Turkmanistonda deyarli barcha asosiy iqtisodiy tarmoqlar davlatga qarashli. JST esa a'zolik uchun iqtisodiyotda erkin raqobatni ta'minlashni talab qiladi. Hukumat esa bu talablarni qabul qilishga shoshilmaydi. JST a'zolik shartlariga ko'ra, davlatlar o'z bojxona tariflarini muvofiqlashtirishi va savdo to'siqlarini kamaytirishi kerak. Turkmaniston esa import va eksportga qat'iy cheklovlar qo'llab kelmoqda, bu esa JST talablariga zid.

Markaziy Osiyo davlatlari JSTga qo'shilish jarayonida turli bosqichlarda bo'lib, ularning JST a'zolidan kutilayotgan foydalari, duch keladigan qiyinchiliklari va umumiy istiqbollari muhim masalalar qatoriga kiradi. JSTga a'zo bo'lish ushbu mamlakatlarning xalqaro savdoda ishtirokini kengaytirishi, investitsiya muhitini yaxshilashi va iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq, bu jarayon har bir mamlakat uchun o'ziga xos qiyinchiliklarni ham tug'diradi.



1-jadval

Markaziy Osiyo mamlakatlari JSTga a'zolikning hozirgi holati¹

Davlat	JST a'zolik holati	A'zolik jarayoni
Qozog'iston	To'liq a'zo (2015)	To'liq a'zo bo'lgan va JST shartlarini bajarmoqda
Qirg'iziston	To'liq a'zo (1998)	JST talablariga eng erta moslashgan davlat
O'zbekiston	A'zolik jarayoni davom etmoqda	2020-yildan jarayon faollashgan
Tojikiston	To'liq a'zo (2013)	JST talablariga mos islohotlar davom etmoqda
Turkmaniston	Kuzatuvchi (2020)	To'liq a'zolik jarayoni boshlanmagan

JSTga a'zolik Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun muhim strategik qadam bo'lib, ularning xalqaro savdoda ishtirokini kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish imkonini beradi. Biroq, bu jarayon proteksionistik siyosatdan voz kechish, iqtisodiy liberallashtirish va JST talablariga moslashishni talab qiladi.

2-jadval

JSTga a'zo bo'lishning savdo hajmiga ta'siri (mlrd. USD)²

Mamlakat	JSTga a'zo bo'lishdan oldin (2023)	JSTga a'zo bo'lishdan keyin (prognoz 2028)
O'zbekiston	52,0	75,0

¹ <https://uzbwto.uz/oz/news/integration-in-world-econ>² <https://www.spot.uz/> ma'lumotlari asosida tuzilgan



Qozog‘iston	95.5	120.0
Qirg‘iziston	13.2	17.5
Tojikiston	11.5	15.0
Turkmaniston	18.0	25.0

Eng yaqin istiqbolda O‘zbekiston JSTga qo‘shilish arafasida bo‘lsa, Turkmaniston hali ham iqtisodiy ochiqlikka shoshilmayapti. Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston esa JST talablariga moslashishda davom etmoqda. Umuman olganda, JSTga a‘zolik Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiy o‘rish va global integratsiyaning muhim qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Trade Organization. *Annual Report 2024*. Geneva: WTO Publications, 2024.
2. World Bank. *World Development Indicators Database*. Washington, D.C.: The World Bank, 2025.
3. International Monetary Fund (IMF). *World Economic Outlook: Economic Resilience and Global Trade*. Washington, D.C.: IMF, 2024.
4. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). *Trade and Development Report 2024*. Geneva: UNCTAD, 2024.
5. OECD. *Trade Policy Reviews: Kazakhstan, Kyrgyz Republic, and Tajikistan*. Paris: OECD Publishing, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayoni to‘g‘risida axborot byulleteni*. Toshkent, 2024.
7. Qirg‘iziston Respublikasi Iqtisodiyot va savdo vazirligi. *WTO Membership and National Economic Reforms*. Bishkek, 2023.
8. Nazarov, Sh. (2023). “Jahon savdo tashkiloti va uning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ahamiyati.” *Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali*, №4, 56–64-betlar.